

Davlat organlari, tashkilot va muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 300 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini (bakalavriat, magistratura) tamomlagan yoki ularda ilmiy daraja (PhD va unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja) olgan yosh mutaxassislarining lavozim maoshiga qo'shimcha ustamalar tatbiq etiladigan ta'lim yo'nalishlari va tor mutaxassisliklar
RO'YXATI

T.r.	Ta'lim yo'nalishlari	Tor mutaxassisliklar
1.	Pedagogika	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (matematika, kimyo, biologiya, geografiya); Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi; Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari, tarix, huquq ta'limi); Islomshunoslik; Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati; Ta'limda axborot texnologiyalari; Testologiya va pedagogik o'leholvnlarni baholash; Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha); Inklyuziv ta'lim; Ta'lim, siyosat va jamiyat; Xalqaro ta'lim siyosati; Xalqaro hamkorlik va STEAM fani.
2.	Gumanitar fanlar	Davlat boshqaruvi va mahalliy o'z-o'zini boshqaruv (faoliyat turi bo'yicha); Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (xorijiy tillar bo'yicha); Lingvistika (xorijiy tillar bo'yicha); Filologiya (xorijiy tillar bo'yicha); Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (mamlakatlar bo'yicha); Falsafa (sohalar bo'yicha); Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat; Arxivshunoslik.
3.	Matematika	Matematik modellastirish va sonli usullar; Matematika (yo'nalishlar bo'yicha); Amaliy matematika va axborot texnologiyalari; Biomatematika; Ixtisoslashgan matematika; Katta ma'lumotlar va yuqori samarali hisoblash; Matematik metodlarni joriy etish (sohalar bo'yicha).
4.	Tabiiy fanlar	Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi (reaktor ekspluatatsiyasi bo'yicha); Biokimyo; Kimyo (fan yo'nalishi bo'yicha); Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha); Biotexnologiya; Geologiya (fan yo'nalishi bo'yicha); Deformatsiyalanadigan qattiq jism mexanikasi; Mikrobiologiya va virusologiya; Seysmologiya; Geofizika; Tuproqshunoslik (tadqiqot turi bo'yicha); Uran geokimyosi va mineralogiyasi; Fizika (yo'nalishlar bo'yicha); Seysmik xavfsizlik; Umumiy va hududiy geologiya (fan yo'nalishlari bo'yicha); Yadro fizikasi va texnologiyasi; Ixtiologiya va gidrobiologiya; Kimyoviy fizika, yonish va portlash fizikasi; Meteorologiya; Gidrometeorologiya; Geokimyo; Mineralogiya; Petrografiya; Paleontologiya; Strukturali geologiya.
5.	San'at	Dizayn (turlari bo'yicha); Madaniyat va san'at sohasi menejmenti; Muzeyshunoslik; Rangtasvir (turlari bo'yicha); San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash; San'atshunoslik (yo'nalishlar bo'yicha); Tasviriy

T.r.	Ta'lim yo'nalishlari	Tor mutaxassisliklar
		va amaliy bezak san'ati (turlari bo'yicha); Xoreografiya san'ati va xoreografiya (turlari bo'yicha); Haykaltaroshlik (turlari bo'yicha); Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha); Rejissyorlik (yo'nalishlar bo'yicha); Kino san'ati; Madaniy merosni boshqarish (faoliyat turlari bo'yicha); Madaniyatshunoslik; Me'morshunoslik; Kinooperatorlik; Teleoperatorlik.
6.	Sotsiologiya va psixologiya	Ijtimoiy tizim va jarayonlarning axborot va psixologik xavfsizligi; Sotsiologiya (yo'nalishlar bo'yicha); Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha); Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha).
7.	Jurnalistika va axborot	Jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha); Xalqaro jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha); Axborot xizmatlari texnologiyalari (faoliyat turlari bo'yicha); Raqamli media; Xalqaro media va kommunikatsiyalarni o'rganish; Internet jurnalistikasi.
8.	Iqtisodiyot	Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha); Bojxona ishi (faoliyat turlari bo'yicha); Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); Davlat moliyasini boshqarish; Investitsiyalarni boshqarish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari; Inson resurslarini va global iqtidorlarni boshqarish; Iqtisodiyotni monetar tartibga solish; Kadr audit va HR-metrika, metodologiya va ulardan davlat boshqaruvida foydalanish; Korporativ boshqaruv; Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti; Loyiha boshqarish; Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); Moliya va moliyaviy texnologiyalar; Moliya, pul muomalasi va kredit; Monopoliyaga qarshi tartibga solish; Soliqlar va soliqqa tortish; Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); Tashqi iqtisodiy faoliyat (sohalar va faoliyat turlari bo'yicha); Xalqaro moliya; Ekonometrika; Davlat moliyasini boshqarish; Davlat xizmatida foydalaniladigan zamonaviy kadr texnologiyalar; Pensiya fondlarini boshqarish; Ijtimoiy soha va inson resurslari menejmenti; Iqtisodiy rivojlanish; Makroiqtisodiy siyosat; Sug'urta ishi (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha); Iqtisodiyotda matematik metodlar; Mehnat iqtisodiyoti va demografiya; Raqamli iqtisodiyot; Xalqaro bank va moliyaviy tadqiqotlar; Xalqaro savdo operatsiyalari; Moliyaviy xavflarni boshqarish; Xalqaro investitsiyalar; Xalqaro logistika; Xalqaro moliya institutlari va kapital bozori; Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish; Biznesni boshqarish (sohalar bo'yicha); Korxona boshqaruvi; Aktuar faoliyat; Startup menejmenti; Davlat xaridlarini boshqarish.
9.	Huquq	Davlat boshqaruvi; Davlat boshqaruvi huquqi; Fuqarolik huquqi; Biznes huquqi; Fuqarolik-protsessual huquqi; Davlat huquqi va boshqaruvi (sohalar bo'yicha); Diplomatik va konsullik huquqi; Jinoiyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti; Jinoiyat protsessi; Kriminalistika, tezkor-qidiruv, huquq va sud ekspertizasi; Intellektual mulk huquqi; Konstitutsiyaviy huquq; Ma'muriy huquq; Moliya va bojxona huquqi; Mehnat huquqi; Moliyaviy-huquqiy monitoring; Soliq va bojxona huquqi; Sud ekspertizasi va kriminalistika; Tezkor-qidiruv

T.r.	Ta'lim yo'nalishlari	Tor mutaxassisliklar
		faoliyati; Xalqaro raqobat huquqi; Xalqaro tijorat huquqi; Xalqaro huquq (sohalar bo'yicha); Harbiy huquq; Huquq va axborot texnologiyalari; Korporativ huquq; Shartnoma huquqi; Xalqaro migratsiya va davlat siyosati; Xalqaro biznes huquqi; Jinoiyat huquqi va kriminalistika; Kriminologiya va xavfsizlik siyosati; Sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasi; Sud-xatshunoslik ekspertizasi; Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi; Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ekspertizasi; Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash; Sport huquqi; Advokatlik faoliyati; Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati; Ommaviy axborot vositalari huquqi; Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari; Qiyosiy huquq; Xalqaro tijorat arbitraji; Mulk huquqi; Qishloq xo'jaligi huquqi.
10.	Muhandislik ishi	Geodeziya va kartografiya (funktsiyalari bo'yicha); Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi; Gidroelektrstantsiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari; Yerusti transport vositalari va tizimlari; Issiqlik texnikasi (qo'llanish obyekti bo'yicha); Ichki yonuv dvigatellarini sinash va ulardan foydalanish; Konchilik geologiyasi va geofizikasi; Mahsulotlar xavfsizligi va ularning sertifikatitsiyasi; Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish; Neft va gaz konlari mashina va jihozlaridan foydalanish; Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish; Neft va gaz konlarini qidiruv-razvedka ishlarining geofizik metodlari; Neft va gaz quvurlari, baza va omborlarini qurish va ulardan foydalanish; Neft va gaz quduqlarini burg'ilash; Neft-gaz konlari geologiyasi; Raqamli texnika va boshqaruvchi tizimlar; Sanoat issiqlik energetikasi; Shaxta va yer osti muhandisligi (faoliyat turi bo'yicha); Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (kon turlari bo'yicha); Elektr stantsiyalari; Elektr ta'minoti (tarmoqlar bo'yicha); Elektr energetikasi tizimlari va tarmoqlari (faoliyat turlari bo'yicha); Energiya tejamkorligi (tarmoqlar bo'yicha); Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish (tarmoqlar bo'yicha); Elektrotexnologik jarayonlar va qurilmalar (tarmoqlar bo'yicha); Aviatsiya-kosmik vositalari bilan tabiiy resurslarni tadqiq qilish; Aerodinamika va aerostruktura; Aerokosmik materiallar; Kosmik tizimlar muhandisligi; Uchuvchisiz samolyot tizimlarini loyihalash; Kvant texnologiyasi; Yadro fanlari va texnologiyalari; Yadro va radiologik muhandislik; Yadro sintezi va muhandislik fizikasi; Geologiya muhandisligi; Masofadan zondlash va atrof-muhit xaritasini yaratish; Energiya resurslari muhandisligi; Issiqxonalar va ularning muhandislik tizimlari; Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyasi; Matematik injiniring (ishlab chiqarish sohalar bo'yicha); Energiya tejamkorligi va energoaudit; Intellektual muhandislik tizimlari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); Aerofotogeodeziya muhandisi; Aeronavtika muhandisi; Aeronavigatsiya muhandisi; Navigatsiya tizimlari muhandisi; Uchuvchisiz uchish apparatlari muhandisi; Uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqarish; Sun'iy yo'ldosh texnologiyalari muhandisi; Sun'iy yo'ldosh texnologiyalarini loyihalashtirish; Mexatron muhandisligi; Biomeditsina muhandisligi; Yadro energetikasi va issiqlik fizikasi; Issiqlik energetikasi va issiqlik texnikasi; Elektroenergetika va elektrotexnika; Hisoblash muhandisligi; Fotonika va optoinformatika; Yuqori texnologiyali plazma va energetik uskunalari; Texnosfera xavfsizligi; Tabiiy resurslardan foydalanish va boshqarish; Yer resurslari muhandisligi.

T.r.	Ta'lim yo'nalishlari	Tor mutaxassisliklar
11.	Ishlab chiqarish texnologiyalari	Biotexnologiya; Biomahsulot ishlab chiqarish texnologiyalari; Kimyoviy va neft-gaz kimyoviy texnologiyalar; Kimyoviy sanoat va qurilish materiallari korxonalarining mashinalari va apparatlari; Kimyoviy texnologiya jarayonlari va apparatlari (ishlab chiqarish turi bo'yicha); Materialshunoslik va materiallar texnologiyasi (tarmoqlar bo'yicha); Mashinasozlik texnologiyasi va jihozlari (ishlab chiqarish bo'yicha); Mashinasozlikda texnologik jarayonlar va tizimlarni avtomatlashtirish; Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi (ishlab chiqarish turlari bo'yicha); Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha); Silikat va qiyin eriydigan nometal materiallar texnologiyasi; Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (turlari bo'yicha); Tikuv buyumlari texnologiyasi va konstruksiyasi; To'qimachilik va engil sanoat mashinalari hamda apparatlari; Elektronika sanoati texnologik mashinalari va jihozlari; Energiya mashinasozligi (tarmoqlar bo'yicha); Yuqori molekulyar birikmalar kimyoviy texnologiyasi; Qayta tiklanadigan energiya va yangi texnologiyalar; Avtonom aqlli mashinalar va tizimlar; Ishlab chiqarishni boshqarish; Materialshunoslik va muhandislik; Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi; Barqaror energiya texnologiyalari; Neft-gaz sanoatida resurslarni tejash texnologiyasi; Ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; Paxtani dastlabki ishlash va urug' tayyorlash texnologiyasi; Neft va gazni qayta ishlash sanoati mashinalari va apparatlari; To'qimachilik va engil sanoat mahsulotlari materialshunosligi; Funktsional ovqatlanish va bolalar mahsulotlari texnologiyasi; Gazni chuqur qayta ishlash texnologiyasi; Aerokosmik texnologiyalar va ularning ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish; Sanoat menejmenti; Foydali qazilmalarni qayta ishlash va boyitish (qazilma turlari bo'yicha); Metallurgiya va kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha); Foydali qazilma konlarini qazish; Noyob va radioaktiv metallar rudalarini qazib olish; Konilik mashinalari va jihozlari; Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish (tarmoqlar bo'yicha); Elektr ta'minoti (tarmoqlar bo'yicha).
12.	Kompyuter texnologiyalari va informatika	"Elektron hukumat" tizimini boshqarish; Axborot tizimlari (tarmoqlar bo'yicha); Axborot va multimedia texnologiyalari (qo'llanish sohasi bo'yicha); Axborot tizimlarining matematik va dasturiy ta'minoti; Axborot xavfsizligi (sohalar bo'yicha); Dasturiy injiniring; Informatika va axborot texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); Komp'yuter injiniringi; Komp'yuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); Kriptografiya va kriptozanaliz (yo'nalishlar bo'yicha); Bioinformatika; Katta ma'lumotlar va raqamli kelajak; Davlat fuqarolik xizmatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda axborot xavfsizligini ta'minlash; Davlat fuqarolik xizmatini avtomatlashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; Data science; Sun'iy intellekt (texnologiyalari, loyihalashtirish, jismoniy va mantiqiy qurilmalari, muhandislik); Raqamli texnologiyalarni joriy etish (sohalar bo'yicha); Ma'lumotlar ilmi; Tashkilotlarda sun'iy intellekt tizimlari (sohalar bo'yicha); Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar sohasida axborot xavfsizligi; Biznes informatika.

T.r.	Ta'lim yo'nalishlari	Tor mutaxassisliklar
13.	Arxitektura va qurilish	Avtomobil yo'llari va aerodromlar; Bino va inshootlar arxitekturasi; Bino va inshootlar qurilishi (inshootlar turi bo'yicha); Issiqlik-gaz ta'minoti, ventilyatsiya, havoni mo'tadilash va havo havzasini muhofaza qilish; Ko'priklar, tonnellar va metropoliten qurilishi (inshootlar turi bo'yicha); Qurilish iqtisodiyoti; Qurilish konstruksiyalari, binolar va inshootlar qurilishi; Suv ta'minoti, kanalizatsiya, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish; Temir yo'ldan foydalanish va temir yo'l xo'jaligi; Shahar qurilishi va qurilishi; Shaharsozlik va qishloq aholi yashash joylarini kompleks qurish; Inshootlarning seysmik mustahkamligi; Seysmik xavfsizlikni ta'minlash; Raqamli arxitektura va dizayn; Qurilish muhandisligi; Ekologik toza qurilish texnologiyalari; Barqaror qurilish texnologiyalari; Qurilishni boshqarish; Urbanizatsiya; Arxitektura, landshaft arxitekturasi va shaharsozlik; Ko'chmas mulk va infratuzilma; Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish va landshaftli qurilish; Amaliy shaharshunoslik va informatika; Infratuzilma obyektlarini qurish (inshootlar turi bo'yicha); Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi (ko'priklar va tonnellar); Zamonaviy ko'priklar qurilishi muhandisi; Zamonaviy yo'llar qurilishi muhandisi; Qurilish menejmenti.
14.	Aloqa va axborotlashtirish, telekommunikatsiya texnologiyalari	Axborot tizimlari va raqamli innovatsiyalarni boshqarish; Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment; Radioelektron qurilmalar va tizimlar (turlari va tarmoqlar bo'yicha); Axborotni uzatish tizimi va tuzilishi; Televizion, radioaloqa va radioeshittirish qurilmalari hamda tizimlari (turlari bo'yicha); Telekommunikatsiya tizimini dasturlash ta'minoti; Telekommunikatsiya tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligi; Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi; Telekommunikatsiya injiniringi; Telekommunikatsiya texnologiyalari; Telekommunikatsiya tizimlarining dasturiy ta'minoti; Kiberxavfsizlik; Tizimlarning dasturiy ta'minoti va xavfsizligi; PR va kommunikatsiya; Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari faoliyatini avtomatlashtirish.
15.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Agrokimyo; Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha); Agrotuproqshunoslik va agrofizika (sohalar bo'yicha); Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi; Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish; Ipakchilik; Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi; Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha); Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish, ko'paytirish va ularning seleksiyasi (hayvonot turlari bo'yicha); Mevachilik; Parrandachilik; Sabzavotchilik va polizchilik; Seleksiya va urug'chilik (ekinlar guruhlar bo'yicha); Uzunchilik va uzumni dastlabki qayta ishlash; O'rmonchilik; O'simliklar himoyasi (usullari bo'yicha); O'simlikshunoslik (ekinlar guruhlar bo'yicha); Zootexniya (turlari bo'yicha); O'rmon va tabiatni muhofaza qilish; Rivojlanish va qishloq innovatsiyasi; Agro va ekotizim muhandisligi; Fermer xo'jaligi va klaster; Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni dastlabki qayta ishlash texnologiyasi; Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash.

T.r.	Ta'lim yo'nalishlari	Tor mutaxassisliklar
16.	Qishloq xo'jaligida menejment	Qishloq xo'jaligida menejment; Agrobiznes menejmenti va marketingi; Qishloq xo'jaligi tizimlarini boshqarish va atrof-muhit fanlari; Global oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi biznesi; Resurslar iqtisodiyoti va ekologik sotsiologiya; Qishloq xo'jaligini klasterli rivojlantirish; Qishloq xo'jaligiga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish.
17.	Qishloq xo'jalik texnikasi	Agrosanoat majmui elektrotexnik uskunolari va elektr ta'minoti; Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini avtomatlashtirish; Qishloq xo'jaligi mashinasozligi; Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash (tarmoqlar bo'yicha); Barqaror qishloq xo'jaligi texnologiyalari.
18.	Veterinariya	Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, immunologiyasi va mikologiyasi; Veterinariya sanitariyasi, veterinar-sanitarlik ekspertizasi va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash gigiyenasi; Hayvonlarni parazitli va yuqimli kasalliklari; Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va davolash; Veterinariya biotexnologiyasi; Veterinariya virusologiyasi; Chorvachilik va genetika.
19.	Irrigatsiya va melioratsiya	Gidromelioratsiya; Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik; Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash; Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash; Biosistemalar muhandisligi; Rivojlanish va qishloq innovatsiyasi; Suv resurslari va suvdan foydalanish; Suv ta'minoti; Hidrologiya va suv resurslarini boshqarish; Chuchuk suv muhitini kompleks boshqarish; Suvshunoslik, siyosat va boshqarish; Suv tejovchi texnologiyalarni avtomatlashtirish; Nasos stansiyalaridan foydalanish, elektr ta'minoti; Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish; Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika obyektlari.
20.	Sog'liqni saqlash	Anesteziologiya va reanimatologiya; Akusherlik va ginekologiya; Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi; Bolalar xirurgiyasi; Gematologiya va transfuziologiya; Biotibbiyot fanlari; Qonshunoslik; Dermatovenerologiya; Kardiologiya; Klinik-laborator va funksional diagnostika; Morfologiya (yo'nalishlar bo'yicha); Nevrologiya; Neyroxirurgiya; Otorinolaringologiya; Oftalmologiya; Parazitologiya; Patologik anatomiya; Pediatriya (neontologiya); Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'ligini saqlash; Sport tibbiyoti; Tibbiy psixologiya; Travmatologiya va ortopediya; Urologiya; Xirurgiya (yo'nalishlar bo'yicha); Endokrinologiya; Dalillarga asoslangan tibbiyot (tibbiy statistika); Genomik tibbiyot va statistika; Biologik va tibbiy informatika; Ftiziatriya va pulmonologiya; Tez yordam va shoshilinch tibbiy yordam; Onkologiya (kimyoviy terapiya, mammologiya); Onkologiya va gematologiya (pediatriya); Allergologiya va immunologiya; Yurak-qon tomir jarrohligi; Neyrojarrohlik; Jarrohlik innovatsiyasi; Transplantatsiya operatsiyasi; Saraton biologiyasi va radiatsiya

T.r.	Ta'lim yo'nalishlari	Tor mutaxassisliklar
		terapiya fizikasi; Sog'liqni saqlash siyosati, boshqarish va baholash; Yuqumli kasalliklar va immunitet; Yuqumli kasalliklar biologiyasi; Bolalar ginekologiyasi; Bolalar stomatologiyasi; Bolalar yuqumli kasalliklari; Gerontologiya; Klinik epidemiologiya; Narkologiya; Nefrologiya; Nutritsiologiya; Onkogemotologiya; Psixiatria; Suitsidiologiya; Reabilitologiya; Tibbiy genetika; Tibbiy radiologiya; Transplantologiya; Flebologiya; Stomatologiya.
21.	Farmakologiya	Farmakologiya; Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish; Farmatsevtik kimyo va farmakognoziya; Dorilarning sanoat texnologiyasi; Immunobiologik va mikrobiologik preparatlar texnologiyasi; Klinik farmakologiya; Aniq tibbiyot va farmakologik innovatsiyalar; Harbiy epidemiologiya; Harbiy gigiyena; Harbiy sog'liqni saqlashni tashkil etish va menejmenti; Kommunal gigiyena; Mehnat gigiyenasi; Farmatsevtik biotexnologiya; Yangi dori vositalarni ishlab chiqarish; Sanoat farmatsiyasi; Dori vositalarini standartlashtirish, sertifikatlash va sifat menejmenti.
22.	Xizmat ko'rsatish sohasi	Turizm (faoliyat turlari bo'yicha); Turizm menejmenti; Turizm marketingi; Turizm biznesini boshqarish; Turizmni boshqarish innovatsiyalari; Turizm iqtisodiyoti va menejmenti; Mehmonxona xo'jaligi (faoliyat turlari bo'yicha); Joy, madaniyat va turizm; Mehmondo'stlik sanoati; Xalqaro turizmni boshqarish va marketing; Restoran xo'jaligi, Restoran biznesini boshqarish; Turizm logistikasi; Turoperator; Turagent.
23.	Sport	Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha); Jismoniy tarbiya va sport menejmenti; Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi; Sport tibbiyoti; Jismoniy madaniyat; Jismoniy tarbiya va sport targ'ibotchisi; Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish; Sport psixologiyasi; Sport jurnalistikasi.
24.	Transport	Tashishlarni tashkil etish va transport logistikas (transport turlari bo'yicha); Havodagi harakatni boshqarish va aeronavigatsiya; Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish; Transport, infratuzilma va logistika; Transport va biznesni boshqarish; Transport va shaharsozlik; Transport tizimlarini tahlil qilish va rejalashtirish; Barqaror transport va energiya tizimlari; Transport infratuzilmasini loyihalash; Mobillik, transport va shaharsozlik; Transport tizimlarini tahlil qilish va rejalashtirish; Transport va shaharsozlik; Temir yo'l transporti tizimini rivojlantirish; Temir yo'l tizimlarini loyihalash; Transport turlari hamkorligini rejalashtirish; Intermodal transport tizimlari texnologiyasi; Intermodal tashishlarni boshqarish; Transport va logistikaning innovatsion konsepsiyasi; Yuqori tezlikdagi rels transporti; Amaliy kosmik texnologiyalar; Aviatsiya injiniringi.

T.r.	Ta'lim yo'nalishlari	Tor mutaxassisliklar
25.	Kommunal xizmat ko'rsatish	Kommunal sohani boshqarish; Ichimlik suv ta'minoti; Ichimlik suv va kanalizatsiya tizimi obyektlaridan foydalanish; Ichimlik suv va oqova suvlarni tozalash xizmatlarini ko'rsatish; Kommunal soha raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish; Ichimlik suv va kanalizatsiya tizimi inshootlari; Kommunal bilim; Ichimlik suv va kanalizatsiya tizimlarini ekspluatatsiya qilish.
26.	Atrof-muhit muhofazasi	Atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); O'simliklar va atrof-muhit fanlari bo'yicha tadqiqotlar; Atrof muhit va resurslar iqtisodiyoti; Atrof muhitni boshqarish va rivojlantirish; Iqlimning o'zgarishi; Fuqarolik va atrof-muhit muhandisligi; Geologiya va atrof-muhit; Iqlim o'zgarishi: atrof-muhit, fan va siyosat; Tabiiy ofatlar xavfini boshqarish va iqlim o'zgarishiga moslashish; Amaliy meteorologiya va iqlimshunoslik; Mahsulotlar ekologiya xavfsizligi va ularning sertifikatatsiya (tarmoqlar bo'yicha); Ekoaudit; Chiqindilarni qayta ishlash bilan ishlarni muvofiqlashtirish.

Izoh:

1. Yosh mutaxassisning ta'lim hujjatlarida (diplomda) ko'rsatilgan ta'lim yo'nalishlari va tor mutaxassisliklari belgilangan tartibda nostrifikatsiya qilingandan so'ng ro'yxatga mosligi aniqlanadi.
2. Mazkur ro'yxat davlat organlari va tashkilotlarining asoslantirilgan takliflari asosida o'zgartirilishi mumkin.